## Ucelldan "Hisobla, G'olib bo'l!" Viktorinasi!

**"Hisobla, G'olib bo'l!" bu nima?**

"Hisobla, G'olib bo'l!" – bu Ucell abonentlariga oddiy matematik mashqlar javobini topish va kuni bo'yi yoki oylab ko'ngil ochish orqali turli xil ajoyib yutuqlar g'olibi bo'lish imkoniyatini beruvchi viktorina hisoblanadi. Viktorinada xohlagan modeldagi telefon (smartfon yoki eski telefonlar) bilan ishtirok etishingiz mumkin. Buning uchun faqatgina xohlagan so'z bilan viktorinaning 9800 qisqa raqamiga SMS yuborib, matematik mashqlarni yechish kerak. Masalan, Siz 9800 qisqa raqamidan "2 + 1*3 =?" mashqini olasiz, Siz to'g'ri javob- 5 ni topib, 9800 qisqa raqamiga javoban 5 raqamini yuborishingiz kerak.

**Qanday ishtirok etish mumkin?**

"Hisobla, G'olib bo'l!" viktorinasini faollashtirish uchun faqatgina xohlagan so'z bilan (СТОП, STOP yoki STOP1 o'chirish kalit so'zlaridan tashqari) viktorinaning 9800 qisqa raqamiga SMS yuborib, matematik savollarga to'g'ri javob yozish kerak.

Faollashtirish so'roviga javoban Siz ro'yxatdan o'tganlikni tasdiqlovchi SMS notifikatsiya, shuningdek xizmat, qiymati, o'chirish qoidalari to'g'risida to'liq ma'lumot hamda Viktorinaning birinchi savolini olasiz.

Viktorina kunlik pullik obuna asosida amalga oshiriladi (kuniga 1684 so'm/ QQS bilan). Viktorinaga obuna har kuni abonent to'lovi uchun yangilanadi, unga ko'ra abonent qo'shimcha 100 ball yutuqlarni olish va 20 ta savolga javob berish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Har bir to'g'ri javob abonentga 10 ball beradi.

**Viktorina qaysi tilda o'tkaziladi?**

Viktorina oʻzbek (asosiy til, avtomatik ravishda o'rnatilgan) va rus (Abonentning tanlovi boʻyicha) tillarida taqdim etiladi.

Viktorinaning tilini rus tiliga o'zgartirish uchun abonent 9800 qisqa raqamiga - RU yoki РУ kalit so'zi bilan SMS-xabar yuborishi kerak. O'zbek tiliga qaytish uchun foydalanuvchi 9800 qisqa raqamiga - UZ kalit so'zi yoki Uzbek so'zini SMS orqali yuborishi kerak.

Tilni o'zgartirgandan so'ng, foydalanuvchi tegishli SMS-xabarni va tanlangan tilda keyingi savolni oladi.

**Viktorina qancha davom etadi?**

"Hisobla, G'olib bo'l!" viktorinasi 01/12/2019 yildan 30/11/2020 yilgacha bo'lgan muddatda davom etadi.

**Qanday qilib g'olib bo'lishim mumkin?**

Obunaning har bir to'langan kuni ishtirokchiga to'g'ri javoblarni yuborishdan olingan ballardan tashqari qo'shimcha ballar olish imkoniyatini beradi. Abonent kunlik to'liq obuna to'lovi (kuniga 1684 o'zbek so'mi)ni to'lasa, sovrinlarni yutish uchun qo'shimcha 100 ball oladi va 20 ta savolga javob berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir to'g'ri javob abonentga 10 ball beradi. Noto'g'ri javob ballarni kamaytirmaydi va foydalanuvchi keyingi savolni oladi.

Viktorinaning ishtirokchisiga aylanib, abonentlar viktorinaning butun amal qilish muddati davomida "Xizmatning baxtli soatlari" bilan bogʻliq SMS xabarni olishga oʻzlarining toʻliq roziliklarini berishadi. Ushbu vaqt ichida to'g'ri javoblarni yuborib, abonent odatdagidan 2 baravar ko'p ball olish imkoniyatiga

ega bo'ladi. Viktorina ishtirokchilari belgilangan vaqt oralig’i haqida faol ishtirokchilar ma'lumotlar bazasiga SMS yuborish orqali xabardor qilinadi.

Har bir Ishtirokchining umumiy reytingi olingan ballarning yig'indisidir (kunlik to'lov va har bir to'g'ri javob uchun).

Har bir Ishtirokchining kunlik reytingi kun davomida olingan ballar yig'indisidir.

Har bir Ishtirokchining haftalik reytingi joriy hafta davomida olingan ballar yig'indisidir.

Har bir Ishtirokchining oylik reytingi joriy oy davomida olingan ballar yig'indisidir.

Har bir Ishtirokchining yillik reytingi Viktorinaning butun davri (bir yil) bo'yicha to'plangan ballar yig'indisidir.

**Qancha sovrinlar o'ynaladi?**

Viktorina g'oliblariga quyidagi sovg'alar topshiriladi:

**HAR KUNLIK SOVRINLAR:**
I o'rin: 100 000 so'm (o'zbek so'mida).
II o‘rin: 50 000 so‘m (o‘zbek so‘mi).
III o'rin: 20 000 so'm (o‘zbek so'mi).

**HAR HAFTALIK SOVRINLAR:**

I o'rin: 3 000 000 so'm (o‘zbek so‘mi).

II o‘rin: 1 500 000 so‘m (o‘zbek so‘mi).

III o‘rin: 500 000 so‘m (o‘zbek so‘mi).

**HAR OYLIK SOVRINLAR:**

I o'rin: IPHONE 11 PRO

II o'rin: Xiomi Mi8 Lite

III o'rin: Xiomi Redmi 7A

**YAKUNIY SOVRIN**: 200 000 000 UZS (o'zbek so'mi).

**Men qancha sovrin yuta olaman?**

Sovrinlar har kunlik, har haftalik va har oylik asosda o'ynaladi. Har kuni, har hafta va har oyda uchta sovrin o’rinlari o'ynaladi. Viktorina oxirida bitta super sovrin o'ynaladi. Bir xil natijalar bo’lganida mukofot topshiriqni eng tez bajargan Abonentga beriladi, daqiqalar va soniyalar hisobga olinadi.

Kunlik sovrin haftada faqat bir marta ishtirokchi tomonidan yutib olishi mumkin.

Haftalik sovrin oyda bir marta ishtirokchi tomonidan yutib olishi mumkin.

Oylik sovrin olti oyda bir marta ishtirokchi tomonidan yutib olishi mumkin.

**Men yutug'imni qanday qilib olishim mumkin?**

Biz Siz bilan aloqaga chiqib, Sizga Taqdim etilayotgan xizmat doirasidagi sovg'alar yetkazib berilmaydi

Kunlik sovg'alar abonentlarning mobil balansiga o'tkaziladi.

**Viktorinada ishtirok etish uchun qaysi kalit so'zni yuborish kerak?**

"Hisobla, G'olib bo'l!" viktorinasini faollashtirish uchun abonentlarga faqatgina xohlagan so'z bilan (СТОП, STOP yoki STOP1 o'chirish kalit so'zlaridan **TASHQARI**) viktorinaning 9800 qisqa raqamiga SMS yuborish kerak.

**Xizmat narxi qancha?**

Viktorina har kunlik obuna asosida amalga oshiriladi (1684 kuniga/so'm/ QQS bilan)

Barcha abonentlar birinchi marta ulangan kunida viktorinada bepul ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Nima uchun xizmatga ulanish kerak?**

Faqat xizmatga obuna bo'lgan abonentlar viktorinada o'ynashi va sovg'alarni yutib olishi mumkin. Si shuningdek kunlik obuna uchun har kuni 100 ballga ega bo'lasiz.

**Men kunlik obuna uchun to'lashni qachon boshlayman?**

Birinchi marta ulangan kunda barcha abonentlar viktorinada bepul ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ulanishning ikkinchi kunidan boshlab har kuni abonent hisobidan 1684 UZS (o'zbek so'mida)/kuniga viktorinaga obuna bo'lganlik uchun yechib olinadi.

Agar abonent o'z obunasini to'xtatib, qaytadan ulansa, unda qayta ulangan kundan boshlab abonent hisobidan obuna to'lovi yechiladi.

**Kunlik to'lovni qancha vaqt to'lashim kerak?**

Xizmatga obuna uchun to'lov abonent xizmatni o'chirguniga qadar yoki xizmat to'xtatilgunga qadar yechib olinadi.

Ishtirokchilar tomonidan xizmatdan foydalanish munosabati bilan sarflagan mablag'lar qaytarilmaydi.

**Menga 9800 raqamidan keluvchi SMS-xabarlar pullikmi?**

Yo'q, 9800 qisqa raqamidan kelgan barcha xabarlar bepul.

**Men 9800 raqamiga yuboradigan SMS-xabarlar pullikmi?**

Yo'q, 9800 qisqa raqamiga yuborilgan barcha xabarlar bepul.

**Qancha ball to'plaganimni qanday bilib bo'ladi?**

"ИНФО" yoki "INFO" kalit so'zlarini 9800 qisqa raqamiga yuborib, joriy ballaringiz to’g’risida ma'lumot olishingiz mumkin.

**Savollar miqdori cheklanganmi?**

Ha, kunlik to'lov evaziga sizga kuniga 20 tadan ko'p bo'lmagan savollarga javob berish imkoniyati beriladi.

**Ko'proq savollar so’rashim mumkinmi?**

Ha, agar siz o'yinni davom ettirishni istasangiz, 9800 qisqa raqamiga "OK" yoki "20" so'zlarini SMS orqali yuborib, yana 20 ta savol va 100 ball olishingiz mumkin. Har bir bunday so'rov uchun qo'shimcha to'lov olinadi:1684 UZS (o’zbek so'mi) QQS bilan.

**Javoblar miqdori cheklanganmi?**

Ha, har bir savolga faqat bitta javob yuborishingiz kerak.

**Agar men xizmatni bekor qilsam, mening to’plagan ballarim yo'qoladimi?**

Yo'q, sizning ballaringiz viktorina oxirigacha saqlanib qoladi.

**Noto'g'ri javob uchun ball olamanmi?**

Yo'q, siz noto'g'ri javoblar uchun ball olmaysiz.

**“Baxtli soatlar” bu nima?**

Ushbu vaqt ichida to'g'ri javoblarni yuborib, abonent odatdagidan 2 baravar ko'p ball olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Viktorina ishtirokchilari belgilangan vaqt oralig’i haqida faol ishtirokchilar ma'lumotlar bazasiga SMS yuborish orqali xabardor qilinadi.

**Men bir kunlik obuna uchun 100 balldan kam ball oldim. Nima uchun?**

Agar ishtirokchining hisobida 1684 so'mdan kam mablag' bo'lsa, unda abonent balansidan 421 so'm, 842 so'm yoki 1263 so'm yechib olinadi va abonent mos ravishda kamroq kunlik ballar ega bo’ladi: 25, 50 yoki 75 ball.

**Men ballarimni ko’paytira olamanmi?**

Ha, Siz "OK" yoki "20" so'zlarini SMS orqali yuborib, yana 20 ta savol va 100 ball olishingiz mumkin. Har bir bunday so'rov uchun qo'shimcha to'lov olinadi:1684 UZS (o’zbek so'mi) QQS bilan.

**Viktorinada kimlar qatnasha olmaydi?**

Operator bilan uyali aloqa xizmatlarini taqdim etish shartnomasi bo'yicha Abonent bo'lgan yuridik shaxslar Viktorinada ishtirok eta olmaydilar.

Operator va Kontent –Provayder xodimlari va ularning qarindoshlikning birinchi navbati bo‘yicha qarindoshlari (ota-onalari, bolalari, qarindoshlari va to‘liq qarindosh bo‘lmagan aka-ukalari, opa-singillari, turmush o‘rtoqlari), shuningdek agentlar va/yoki Operator va Kontent-Provayder distribyutorlari kabi tijorat vakillari yoki affillangan shaxslar bilan tijorat munosabatlarida bo‘lgan shaxslar, shuningdek ushbu Viktorinani amalga oshirilishi uchun Operator va Kontent-Provayder tomonidan yollangan kompaniyalar viktorinada ishtirok etishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar ushbu odamlardan biror biri viktorinada ishtirok etgan va g‘olib bo‘lib chiqsa, u holda tegishli sovrin hech bir holatda unga berilmaydi, balki talablarga javob beradigan va keyingi o‘rinni egallagan ishtirokchiga o‘tadi.

**Qanday qilib xizmatga obunani bekor qilishim mumkin?**

СТОП, STOP yoki STOP1 kalit so’zlarini 9800 raqamiga yuborib, xizmatga obunani bekor qilishingiz mumkin.

**Xizmatga obunani bekor qilganimdan so'ng xizmatga qayta ulana olamanmi?**

Obunani bekor qilgandan so'ng, abonent ushbu xizmatni 9800 raqamiga obunani bekor qilishdan oldin olingan so'nggi savol bilan birga xohlagan so’zni (СТОП, STOP yoki STOP1 o'chirish kalit so'zlaridan tashqari) yozgan holda bepul SMS yuborib, xizmatni qayta faollashtirishi mumkin.